

NODIR NORMATOV HIKOYALARIDA MA'NAVY-AXLOQIY QADRIYATLARNING AKS ETISHI

Rushana Zaripova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: rushanazaripova73@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-8207-2819

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14214397>

Annotatsiya. Hikoyalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning aks etishi adabiyotni jamiyatning ruhiy tarbiyachisi sifatida ko'rsatadigan eng muhim jihatlardan biridir. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar insonning ichki dunyosini shakllantiruvchi asosiy omillardan bo'lib, ular asarlar orqali avloddan-avlodga o'tadi. Hikoyalar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yoritishda o'ziga xos ta'sirchan vositadir. Ijodkor o'z asarida yuksak g'oyalar, yaxshi va yomonning mohiyatini, insoniy fazilatlarni tasvirlagan holda, jamiyat va inson qalbiga katta ta'sir ko'rsatadi. Surxon adabiy muhiti vakili Nodir Normatovning hikoyalarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning tasvirlanishi haqida mazkur maqolada atroflicha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: hikoya, axloq, qadriyat, milliylik, badiiy uslub.

REFLECTION OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN NADIR NORMATOV'S STORIES

Abstract. The reflection of moral and ethical values in short stories is one of the most important aspects that highlight literature as a spiritual educator of society. Moral and ethical values are fundamental factors shaping an individual's inner world and are transmitted from generation to generation through literary works. Short stories serve as a unique and impactful medium for illustrating such values. By depicting high ideals, the essence of good and evil, and human virtues in their works, authors significantly influence society and the human heart. This article thoroughly discusses the depiction of moral and ethical values in the short stories of Nodir Normatov, a representative of the Surkhan literary environment.

Keywords: short story, ethics, values, national identity, literary style.

ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАССКАЗАХ НАДИРА НОРМАТОВА

Аннотация. Отражение духовно-нравственных ценностей в рассказах является одним из важнейших аспектов, показывающих литературу как духовного воспитателя общества. Духовно-нравственные ценности — это основные факторы, формирующие внутренний мир человека, которые передаются из поколения в поколение через

литературные произведения. Рассказы служат уникальным и выразительным средством для освещения этих ценностей. Автор, изображая в своих произведениях высокие идеи, суть добра и зла, а также человеческие добродетели, оказывает значительное влияние на общество и человеческую душу. В данной статье подробно рассматривается отражение духовно-нравственных ценностей в рассказах Нодира Норматова, представителя литературной среды Сурхана.

Ключевые слова: рассказ, нравственность, ценности, национальная самобытность, художественный стиль.

Adabiyotshunoslik va uning tadrijida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni kelajak avlodga meros qilib qoldirish, ulg'ayib kelayotgan yangi avlod vakillariga ularning mohiyatini tushuntirish azaldan muhim ahamiyat kasb etib keladi. Aynan shu nuqtayi nazardan qaraganda, taniqli yozuvchi, ko'rkam asarlari bilan milliy adabiyotimiz rivojiga o'z ijodi bilan salmoqli hissa qo'shgan, asarlarida nafaqat qadim Surxon vohasiga, qolaversa, faqat o'zbek mentalitetiga xos qadriyatlarni aks ettirgan adib Nodir Normatovning badiiy mahorati borasidagi izlanish hamda erishgan natijalarini tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Yozuvchi Nodir Normatovning o'zbek adabiyotida munosib o'rni bor. Uning ijtimoiy-maishiy mavzudagi asarlari jamlangan quyidagi kitoblari nashr etilgan: «Ko'zgudagi ikkovlon», «Barigal» «Bisot» (qissa va hikoyalar), «Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati» (esdalik ocheklar), «Ko'hitang hikoyalari», «Daraxt tagidagi odam», «Jazo».

N. Normatov asosan ijtimoiy-maishiy mavzularda ijod qilgan. Yozuvchining hikoyalari, qissa va esselari adib ijodining deyarli yarmini tashkil etadi.

Nodir Normatov o'zining yangi ruhda yaratgan obrazlari bilan o'zbek nasrida anchagina yangilikar qildi. Adib o'zining dastlabki ijod namunalari bilan keng kitobxon e'tiborini o'ziga torta oldi. Uning 1982-yildagi ilk «Bisot» qissasi va 1991-yilda nashr etilgan «Barigal» deb nomlangan romani O'zbekiston qahramoni Said Ahmadning nazariga tushganligi, buning yaqqol ifodasi edi. «Ko'hitang hikoyalari», «Daraxt tagidagi odam», «Jazo», «Ko'zgudagi ikkovlon», «Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati» kabi asarlari ham kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi.

Yozuvchining qissa va hikoyalaridagi qahramonlar o'zlarining turlicha xarakterlari, qiziqarli taqdirleri bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi. Masalan, «Bisot» qissasi 70-yillarning oxirlarida yaratilgan bo'lib, uning bosh qahramoni Qobil lashkar laqabli kishi. Qissada adib Qobil lashkar hayoti, xarakteri orqali uning atrofidagi turli xil insonlar taqdirini o'zgacha usulda yoritib bergan.

Qobil lashkar qishloqdoshlariga yovuz, yomon, qaysar kimsa sifatida ko'rinib-da, ammo faqatgina bir inson uni juda yaxshi ko'radi, qadrlaydi va tushunadi. Bu –uning qizi Barno. U qancha yomon bo'lmasin, inson sifatida o'ziga xos xarakterga ega.

Yozuvchi Nodir Normatov ilk asarlari bilanoq adabiy jamoatchilik nazariga tushgan: bir talay yetuk adabiyotshunos va adiblar uning ijodiga munosabat bildirgan. Xususan, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad, U.Normatov, E.A'zam, I.G'afurovlar adib asarlari haqida yozgan maqola va taqrizlarni misol keltirish mumkin.

Nodir Normatovning "Tiniqgul" nomli ilk hikoyasi 1974-yilda "Saodat" jurnalida e'lon qilindi. "Ko'hitang hikoyalari" nomli birinchi kitobi 1977-yilda bosilib chiqdi. Shundan so'ng "Bisot" (1982), "Jazo" (1985), "Jarlikdan qushlar uchdi" (1986), "Ismoil tog'aning tarozisi" (1987), "Daraxt tagidagi odam" (1988) qissalari, "Barigal" romani e'lon qilindi. "Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati" roman-essesi san'atshunoslar, adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi, rus tiliga tarjima qilindi. "Kamalak yashaydigan uy" kitobi esa rassom haqida bolalarga moslab nashr etildi.

O'tgan asrning 80-90-yillarida milliy va axloqiy qadriyatlar haqida gapirish va ularni targ'ib etish yozuvchidan anchagina yurak talab qilar edi. Ijtimoiy va adabiy muhit, shuningdek ijodkor tabiati va davr muammolari haqida adib Nodir Normatov o'z fikrlarini quyidagicha bildirib o'tadi:

*"Ijodkor tabiatida hayotning ming bir xil jilvalari aks etadi, zamon o'yinlari unga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bularning bari zaruriyat tug'ilganda, adabiyotdek buyuk mo'jizani yaratishda qo'l keladi. Ammo bularning hech biri hech kimga, jumladan, ijodkorga ham kalondimog' va takabbur bo'lish huquqini bermaydi. Shu boisdan Sharq-u G'arb shoirlari, mutaffakirlari bu alomatni hamisha tanqid qilishgan. Sharqona axloq har bir insondan qalbi keng va odamoxun bo'lishni taqozo etadi. "Adabiyot" so'zining lug'aviy ma'nosi go'zal xulq ekanligini inobatga olsak, so'z san'atining jamiyat taraqqiyoti uchun naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi ayonlashadi. Yevropadagi "ego" ta'siri ba'zi ijodkorlarimiz xulq-atvorida ham seziladi. O'zini xokisor tutish "o'n sakkiz ming olam"ni anglash yo'li ekani tasavvufda ta'kidlanadi. Tasavvuf falsafasi, endilikda, butun jahon ilm ahlini hayratga solmoqda"*¹.

Xulosa qilishimiz mumkinki, N.Normatov ijodi, xususan, u yaratgan hikoyalar 90-yillar adabiy muhitida nasr janrining o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi ahamiyatga ega bo'ldi.

¹ N. Normatov, A.Ulug'ov.-// Biz izlayotgan hikmatlar// - O'zbekiston tarixi, adabiyoti va madaniyati// 24-dekabr, 2015-y.

Shuningdek, milliy nasrimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Ammo shuni ham aytib o'tish lozimki, N.Normatovning hamma hikoyalari birdek mukammal, yetuk, kamchiliklardan xoli emas. Mazkur maqolada biz asosiy e'tiborni yozuvchi hikoyalarining fazilatlariga, ularda ilgari surilgan ma'naviy- axloqiy qadriyatlarning tahliliga qaratdik. Bu bejiz emas — tahlilga tortilgan asarlarning aksariyat jihatlari shunga asos beradi. Qolaversa, ular nisbatan pishiq-puxta yozilgani bilan o'sha davr hikoyachiligi manzarasida alohida ajralib turadi.

Masalan, "Ko'cha eshikning naqshin gullari" hikoyasida Asrorqul obrazi orqali kindik qoni to'kilgan tuproqqa, ona Vatanga bo'lgan sadoqat timsoli aks ettirilgan. Poytaxt shaharda qanchalik o'ziga yetarli davlati bo'lmasin, ajdodlari ruhi, xoki abadiy qo'nim topgan dargohga, garchi ming azoblarda o'tgan bo'lsa-da, beg'ubor bolalik damlari kechgan qishloqqa keladi. Uning ajdodlarini taniydiganlar allaqachon o'tib ketgan, faqatgina bir inson-Sulaymonning onasi sarg'ayib ketgan eski bir rasm orqali taxmin qilib tanib oladi. Asrorqul aka o'zining ota makonini yashash sharoiti og'ir, garchi shahardagidek bo'lmasa-da, ota yurtiga kelib maktab qorovulxonasida etikdo'z kosib bo'lib ishlab yurishi, yillar o'tsa-da inson uchun tug'ilib o'sgan tuprog'idek muqaddas narsa yo'qligining isbotidir. Bu esa vatanparvarlik, unga bo'lgan sadoqat insoniy tuyg'ular ichida eng muqaddas ekanligining namunasidir. Hikoya davomida Sulaymon yashab turgan hovlining bir qismi ha shu Asrorqul akaning otasiga tegishli ekanligi ayon bo'ladi.

Sulaymon jahl ustida hovlini taqsimlashni istamasligini aytsa-da, ammo, onasining gaplaridan afsuslanadi. Birovning haqqi bilan yashash va unga egalik qilish og'ir azobligini his qiladi.

Tunni uyqusiz o'tkazadi. Shu o'rinda bir gap: agar xuddi shunday vaziyat G'arb adabiyotida tasvirlanganda edi, balki Sulaymon o'rnidagi shaxs darhol advokat yollab, ota makonini izlab (so'rab emas) kelgan Asrorqulday kishini surobini to'g'rilab qo'ygan bo'larmidi?

Chunki Yevropa asosan Amerika adabiyotlarida inson erki va xohish –istaklari birinchi navbatda tasvirlanadi. Sharq esa mutlaqo boshqacha yo'l tutadi. Avvalo, bunda inson qadr-qimmat, mehr-oqibati, halollik, o'zganing mulkiga ko'z olaytirmaslik, kindik qoni to'kilgan tuproqqa bo'lgan sadoqat... va hokazolar har narsadan ustun. Mag'rib kishilarining aksariyati qayerda yashash sharoiti yaxshi bo'lsa o'sha yerni vatan qilib, yashab ketishadi. Sharqda, jumladan, o'zbeklarda mutlaqo boshqacha: "O'zga yurtda shoh bo'lguncha- o'z yurtida gado bo'l" maqoli bejiz paydo bo'lmagan. Hikoya so'nggida Asrorqul akaning beg'ubor bolalik xotiralariga guvoh bo'lgan, uning ota hovlisidan birgina nishona bo'lib qolgan, u ham bo'lsa bog'chetida eskirib, sarg'ayib, chiqindidek chiqarib tashlangan naqshin gulli eshikni quchoqlab uxlab yotishi... inson uchun vatanning, bolalikning har bir narsasi naqadar azizligining yana bir bor isbotidir.

Adibning “Ayol ovozi” hikoyasidagi Malika o‘zining mehribonligi, samimiyligi va insoniyligi tufayli kitobxon qalbidan chuqur joy oladi.

Yoki “Hushtaklar” hikoyasi bosh qahramoni Suyunjon ismli bola. Suyunjon opasi Sharofat bilan bir-biriga o‘gay bo‘lsa-da, ammo u opasini juda ham yaxshi ko‘radi. Opasini o‘ziga do‘st, ustoz deb biladi. Opasi hushtaklar yasashni o‘rgatganida u juda ham quvonadi. Suyunjon opasi Sharofatga achinadi, u hatto shaharga qochib ketganida ham uni oqlaydi. Opasining yoniga borishga shoshiladi, ammo shaharga, opasini qidirib borganda uning uchun olgan sovg‘alarini, yasagan hushtaklarini e‘tiborga olmagan uchun bu holatdan Suyunjon juda qattiq xafa bo‘ladi. Opasidan kutgan mehrni, e‘tiborni ololmagan Suyunjon undan uzoqlashadi. “Hushtaklar” hikoyasidagi Suyunjon obrazi orqali Nodir Normatov har bir insonning yoshlik davridagi kechinmalarini, his-tuyg‘ularini shu obrazda aks ettirgandek go‘yo.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi hikoyalar asosida N. Normatov ijodiga xos quyidagi muhim jihatlarni ta’kidlab ko‘rsatishimiz mumkin:

- yozuvchi odatda o‘zi sevgan, ko‘ngliga yaqin mavzuga, o‘zini zavqlantirgan voqea va xarakterlarga murojaat etadi. U har qanday holatni aks ettirsin, hamisha mavzuga ruhiy-estetik ehtiyoj, ma’naviy zarurat asosida yondoshadi;

- muallif o‘zi guvoh bo‘lgan, goho ishtirok etgan, boshidan kechirgan voqea-hodisalar to‘g‘risida yozadi; g‘ayritabiiy, o‘quvchi hazm qilishi qiyin sanalgan xususiyatlar uning hikoyalarida deyarli uchramaydi; ularga asos bo‘lgan har qanday voqea-hodisa — hayotning, tiriklikning bir bo‘lagi;

- muayyan hikoya syujeti bir qarashda u qadar ahamiyatga ega bo‘lmagan, kundalik turmushda har qadamda uchraydigan oddiy voqeadек tasavvur tug‘diradi. Ammo muallifning muvaffaqiyati shundaki, ana shu oddiy hayot voqealaridan chuqur mantiqqa asoslangan ibratli badiiy xulosa chiqara biladi;

- adib qanday mavzuni yoritishga kirishmasin, badiiy mazmunni real voqelikdan oladi, avvalo insonni, uning ko‘nglini tadqiq etadi; aynan inson, inson taqdiri, qadr-qiymati masalasi hikoyalarida yetakchilik qiladi;

- uning barcha hikoyalarida milliy asos mustahkam;

- adib hikoyalariga ko‘pincha hayotdagi biror muhim voqea-hodisa yoki keskin burilishlarni asos qilib olmaydi. U butun e‘tiborini insonning ichki olamiga, uning axloqiy-ma’naviy jihatlariga qaratadi, hayotning ko‘pchilik ahamiyat beraver-maydigan nozik tomonlariga, inson yuragining tub-tubiga nazar soladi va dardli nuqtalarini topadi;

- aksariyat hikoyalari qat’iy xulosa bilan yakunlanmaydi, kitobxonni o‘ylashga, fikrlashga undaydi.

REFERENCES

1. Adabiyot va zamon. Maqolalar, adabiy o'ylar, suhbatlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy asar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1978.
3. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. 2-jild.– Toshkent: Fan, 1979.
4. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
5. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2000.
6. N. Normatov, A.Ulug'ov.-// Biz izlayotgan hikmatlar// - O'zbekiston tarixi, adabiyoti va madaniyati// 24-dekabr, 2015-y.